


``Biologiya darslarida
ko`rgazmalardan foydalanish,,



**Biologiya darslarida
ko`rgazmalardan
foydalanish,, mavzusida
metodik tafsiva**

**Biologiya barcha fanlar orasida eng muhim
va qiziqarlisi. Biologiya fanini o`quvchilar
uchun yanada tushunarli va qiziqarli qilish biz
o`qituvchilarning asosiy vazifasi.
Buning uchun biologiya darslarini o`qitishda
zamonaviy texnika vositalari, tayyor tarqatma
va ko`rgazmalardan foydalanish bilan bir
qatorda qo`lda tayyorlangan
ko`rgaz-malar, video o`yin ko`rinishidagi
ko`rgazmalardan foydalanish ham yahshi
natija beradi. Masalan:**

7 – sinf. Zoologiya.
Mavzu: Qushlarning skeleti va muskullari



Biz bu mavzuni yoritishda qushlarning skelet sistemasini qismlarga ajratib chizib olamiz, tayyor rasmni turli ranglarga bo`yab chiqamiz. Bundan maqsad har bir qisimni bir biridan ajralib turishiga erishish.

Ajratib bo`yalgan qismlarni qiyib, qattiq qog`oz yordamida sifatli holatga keltirib olamiz. Tayyor ko`rgazmalarni dars davomida o`quvchilarga alohida alohida ko`rsatib, nomlarini aytib, qanday vazifani bajarishini tushuntiramiz.












- Qismlarni ketma-ket o`z joyiga joylashtirish orqali qushlarning qo`lda tayyorlangan modelini tayyorlashimiz mumkin.
- Mavzuni bu usulda tushuntirish orqali o`quvchilarga qushlar skeletida qanday suyaklar borligi, ularni shakli, joylashishi va bajaradigan vazifasini tushuntirish. Shu bilan birga o`quvchilarda qushlar skeletining o`ziga hos tuzilishi, suvda hamda quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilarnikidan farqi, o`xshashlik tomonlari haqida ham to`laroq ma`lumot berish mumkin.








- Bunday ko`rgazmalardan botanika darslarida ham foydalanish mumkin. Masalan, „Hujayra“, „Ildizning ichki tuzilishi“, „Novda“, „Poyaning ichki tuzilishi“, „Barglarning poyada joylashishi“, „Borglarning ichki tuzilishi“, „Gul“, „Meva“, „To`pgullar“, „Sistematika“, „Qirqbo`g`m` mavzularida yuqoridagi metod yahshi natija beradi.


Zoologiya , odam va uning salomatligi fanlarining barcha mavzularida rasmi ko`rgazmalarni qismlarga ajratib tayyorlash , tuzilishi va joylanishini ko`rsatib tushuntirish mumkin.














Ko`rgazma uchun rasmlarni fosterdan, laminant qilingan shakilda kompyuterda sifatli tayyorlash va uzoq vaqt foydalanish mumkin.

Ko`rgazmalarni biologiya fan to`garaklarida o`quvchilar bilan tayyorlash mumkin.

Fan to`garaklarida iqtidorli o`quvchilar bilan birga bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilarni ham qiziqtirish o`quvchilarni biologiya faniga oid bilimlarini rivojlantirishga erishish mumkin.














Bunda o`quvchilar iqtidoriga qarab rasm chizishlari, bo`yashlari, qirqishlari, karton yopishtirishlari, qismlarni joylahtirishlari orqali mavzuga oid bilimlarni shakillantirishga erishish mumkin.

Ko`rgazmalarni o`quvchilar uy vazifasi sifatida tayyorlab kelishlari ham bo`ladi.

Bundan tashqari ko`rgazmalarni kamyuter dasturlari yordamida vertual ko`rgazma yoki video o`yinli ko`rgazma shaklida ham foydalanish mumkin.



Bunda o`quvchi huddi kompyuter o`yunlari singari bosqichma – bosqich qush skeletining qismlarini o`z joyiga joylashtiradi, ularni o`z rangida bo`yaydi va ohirida natijaga erishadi.

Yuqoridagi faoliyat orqali biz o`quvchilarni besh tashabbus doirasida iqtidorlarini yanada rivojlantirishga erishishimiz mumkin.



**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAXMAT!**